

GAYMARIT KASALLIGINI DAVOLASHDA ISHLATILADIGAN  
SINTETIK DORI VOSITALARINING NOJO'YA TA'SIRLARI

ПОБОЧНЫЕ ДЕЙСТВИЯ СИНТЕТИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВ,  
ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ГЕЙМАРИТА

SIDE EFFECTS OF SYNTHETIC MEDICINES USED IN THE TREATMENT OF  
HEIMARITIS

**Asqarov Ibrohimjon Rahmonovich,**

*Andijon davlat universiteti. Kimyo fanlari doktori, professor,*

**Isaqjonova Mohigul Baxromjon qizi**

*Andijon davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotasiya** *Maqolada gaymarit kasalligida ishlatiladigan antibiotiklar haqida batafsil yoritib berilgan. Ilmiy izlanishlar davomida antibiotiklarning kimyoviy tuzulishi, ta'sir qilish mexanizmi va samarali xamda nojo'ya xususiyatlari o'rganildi.*

**АННОТАЦИЯ** *В статье подробно описаны антибиотики, применяемые при зобе. В ходе научных исследований изучались химическая структура, механизм действия, эффективные и побочные эффекты антибиотиков.*

**Annotation** *The article describes in detail the antibiotics used in goiter. During scientific research, the chemical structure, mechanism of action and effective and side effects of antibiotics were studied.*

**Kalit so'zlar:** *Gaymorit, gipotermiya, zotiljam, angina, difteriya, plevrit, zahm, endemik meningit, endokardit, artrit*

**Ключевые слова:** *Гаймарит, гипотермия, зотиллям, ангина, дифтерия, плеврит, раневой, эндемический менингит, эндокардит, артрит*

**Keywords:** *Humaritis, hypothermia, zotiljam, angina, diphtheria, pleurisy, wound, endemic meningitis, endocarditis, arthritis.*

*Gaymorit* – burun yon (yuqori jag' bo'shlig'i) sinus shilliq qavatining yallig'lanishi bilan ifodalanadigan kasallik, sinusitning bir turi sanaladi va eng keng tarqalgan kasallik hisoblanadi. Kasallik paytida nafas olish qiyinlashadi, burun ko'prigida og'riq paydo bo'ladi, ko'z qovoqlari shishadi, burundan yiringli suyuqlik oqadi. Har o'ninchi odam gaymoritdan aziyat chekadi va hatto 6 yoshdan boshlab bolalar ham u bilan kasallanishi mumkin. 5 yosh va undan kichik yoshdagi bolalarda burun yon sinuslari rivojlanmaganligi sababli bu kasallikka duchor bo'lmaydilar [1].

Sinuslar burun bo'shlig'i atrofida joylashgan bo'lib, ular burun yo'llari yordamida bog'lanadi. Yiriklari yuqori jag'ning yonida joylashgan gaymor bo'shlig'idir, ana shu gaymor bo'shlig'ining yallig'lanishiga gaymorit deb ataladi. Kasallik o'tkir va surunkali bo'lishi mumkin. Yallig'lanish jarayoniga qarab gaymorit quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi. Kataral (tumovga o'xshaydi, ko'z va yonoqlarda og'irlik sezilishi mumkin). Yiringli (sinuslarda yiringli suyuqlik to'planadi, og'riqli hislar paydo bo'ladi). Gaymoritning sabablari ko'pincha gaymorit bilan kasallanish kuz-qish davrida avj oladi, chunki bu vaqtda immunitet pasayadi va havo sovuq bo'ladi. Ushbu kasallik keng tarqalgan yallig'lanish kasalligi bo'lib, quyidagi sabablarga ko'ra rivojlanishi mumkin. Burun va yuqori nafas yo'llarining infeksiyalari, allergik rinit (burun shilliq qavatining yallig'lanishi allergik reaksiya tufayli yuzaga keladi), gipotermiya (sovqotish), immunitetning pasayishi (masalan, OIV tufayli), burun va uning bo'shliqlarining anatomik tuzilishidagi nuqsonlar, masalan, poliplar, burun to'sig'ining qiyshayishi va boshqa belgilar bilan namoyon bo'ladi.


Bemor peshona va yonoqlardagi og'riqdan shikoyat qiladi. Ba'zi hollarda chakka ham og'riydi, nafas olish qiyinlashadi, ikkala sinus yallig'langanda burun orqali nafas olishning iloji bo'lmaydi -faqat og'iz orqali nafas olinadi. Agar ko'z yosh kanali tiqilib qolsa, ko'z yoshlari oqadi. Kasallikning dastlabki bosqichlarida burundan shaffof suyuqlik oqadi, ammo keyinchalik suyuqlik yopishqoq bo'lib, yashil rangga kiradi [2].

Gaymoritni davolash quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi- kasallik belgilarini bartaraf etish, immun funksiyalarini yaxshilash, kasallik qo'zg'atuvchisini yo'q qilish. Burundan yiringli suyuqlik chiqmagan hollarda mahalliy va umumiy preparatlarni qo'llash bilan konservativ davolash amalga oshiriladi. Asoratlar ehtimolini istisno qilish uchun mazkur dori-darmonlardan foydalaniladi- desensibilizatsiya qiluvchi dorilar, antibiotiklar, og'riq qoldiruvchi vositalar, vitaminlardan foydalaniladi. Ushbu usullardan eng avvalo kasallik kechishiga qarab yani yallig'lanish, yiring paydo bo'lgan og'riqli vaziyatlarda antibiotiklardan foydalaniladi, antibiotiklarmikro organizmlardagi moddalar almashinuvi mahsulotlari bo'lib, bu moddalar bakteriyalarni, mikroskopik zamburug'larni, shish hujayralarni o'sishi va rivojlanishiga tanlab ta'sir qilib to'xtatishi mumkin.

Antibiotiklarni sintez qilish qobiliyati mikroblar dunyosida keng tarqalgan bo'lib, antibiotiklar ishlab chiqaruvchi organizmlarga bakteriyalar, aktinomitsetlar va mitselial zamburug'lar kiradi. Ular ushbu kasalliklarni davolashda meyorga va qo'llash usuli, dozasiga axamiyat berib qo'llanilsa samarali ta'sir qiladi. Gaymorit, zotiljam, angina, difteriya, plevrit, zaxm, endemik meningit, endokardit, artritlar va boshqa ko'plab kasalliklarni davolashda foydalaniladi [3].

Hozirgi vaqtda antibiotiklarning soni 70 tadan ortadi, biroq ularni sintez qilish va yangi preparatlar olish davom etmoqda. Antibiotiklarning olinishi, kimyoviy tuzilishi, ta'sir kuchi va spektri turlicha bo'lgani uchun ular turlicha tasnif qilinadi. Bular ichida ko'p ishlatiladigani va qulayrog'i antibiotiklarning mikroblarga ta'sir spektri bo'yicha tasnif etish. Ushbu tasnif bo'yicha ishlatiladigan antibiotiklar asosan quyidagi 6 guruhga bo'linib o'rganiladi va qo'llaniladi. Kasallikning darajasiga qarab gasndan yuqori dozasiga qarab qo'llaniladi.

Antibiotiklarning dastlabki vakili va hozirgi kunda ham ahamiyatli preparatlardan hisoblanadigan penitsillinlar mog'or zamburug'larning penitsillium notatum va xrezogenium turlaridan madaniy holda olinadi.



*Penitsillin*  $C_9H_{11}N_2O_4S$

Penitsillin aktivligi mikrobiologik yo'l bilan aniqlanadi. Shuningdek, benzilpenitsillinning N-etilpiperidin bilan tuz xosil qilish qobiliyatiga asoslangan usul ham topilgan. Hozir ishlatiladigan va savdoga chiqarilgan penitsillinlar orasida faqat benzilpenitsillinning N-etilpiperidin tuzigina amilasetat-atseton eritmasidan cho'kmaga tushadi. Penitsillin sifatining biror ko'rsatkichidan salbiy natijalar olinsa namunalar miqdorini ikki baravar ko'paytirib analizni takrorlash lozim. Agar takroriy analizda ham preparatning sifat ko'rsatkichlaridan biri qo'yilgan talabga javob bermasa preparat brak qilinadi [4].

Antibiotiklar mikroorganizmlardagi moddalar almashinuvi mahsulotlari bo'lib, bu moddalar bakteriyalarni, mikroskopik zamburug'larni, shish hujayralarni o'sishi va rivojlanishiga tanlab ta'sir qilib to'xtatishi mumkin. Antibiotiklarni hosil bo'lishi antronizm namoyon bo'lishining ko'rinishlaridan biridir. Gaymorit kasalligini davolashda antibiotiklarni o'rni beqiyos xisoblanadi, **shuning bilan bir qatorda antibiotiklarga nisbatan yuqori sezuvchanligi, allergiyasi bor bemorlarga qo'llashda extiyotkorlik talab etiladi. Antibiotiklarga nisbatan sezuvchanligi yuqori bemorlarda gaymorit kasalligini tabiiy davolovchi pereparatlar bilan davolash tavsiya etiladi.**



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.R.Asqarov.Tabobat qomusi. Toshkent. " MUMTOZ SO'Z".2019. 1042.
2. I.R Asqarov. SIRLI TABOBAT. Toshkent - "Fan va texnologiyalar nashriyot - uyi" - 2021. 283 b.
3. S.S. Azizova "Farmakologiya". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006-yil.
4. I.R. Asqarov Sh.M. Qirg'izov "Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash" fanidan ma'ruzalar matni. Andijon ADU, 2017-yil..